

O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasini tashkil etishga qadam

Avval xabar qilganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limida 2021-yil fevral oyida Rossiyaning "Uransvetmetgeologorazvedka" Boshqaruv kon-ma'dan kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati rahbariyati bilan hamkorlik qilish to'g'risida muzokaralar bo'lib o'tgan edi. Mart oyining o'rtalarida kompaniya delegatsiyasi yana bir bor Bo'limiga tashrif buyurdi. Natijada Bo'lim va Aksiyadorlik jamiyati o'rtasida Qo'shma korxonasi (QK) tashkil etish va qo'shma faoliyatni amalga oshirish to'g'risida hamkorlik bitimi imzolandi.



Ushbu hamkorlik bitimiga ko'ra, tomonlar birgalikda burg'ulash, geologiya-qidiruv ishlari hamda foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash bozorida tijoratlashtirish yuzasidan muvaffaqiyatli loyihalarni va qattiq foydali qazilmalar sohasida muhandislik-qidiruv ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Bunda, amalga oshirish mexanizmi sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni qidirish uchun moliyaviy aktivlarini hamda ishtirokchilarning texnologik, kadrlar, ishlab chiqarish, savdo va intellektual salohiyatini birlashtirish uchun mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida QK tashkil etish maqsadga muvofiq deb topildi.

Соглашение о намерении создании Совместного предприятия (“СП”) и совместной деятельности

Акционерное Общество Управляющая горно-рудная компания “Уранцветметгеологоразведка” в лице Дегтяренко Владимира Григорьевича, действующего на основании Устава, именуемое в дальнейшем “Участник 1”, с одной стороны, и **Навоийское отделение Академии наук Республики Узбекистан** в лице Мирзаева Абдуразака Умирзаковича, действующего на основании Устава, именуемый в дальнейшем “Участник 2”, с другой стороны, именуемые в дальнейшем “Участники”, заключили настоящее соглашение о намерениях (далее - “Соглашение”), о нижеследующем:

АО Уранцветмет (Россия)

**Навоийское отделение
Академии наук Узбекистана**

Генеральный директор
Дегтяренко В.Г.



Председатель
Мирзаев А.



Bitimda qo'shma korxonaning dastlabki ustav fondi belgilangan. Bundan tashqari, Rossiya tomoni o'z ulushiga investisiya shaklida aktivlar, Bo'lim esa o'zining ilmiy innovasion ishlanmalari hamda O'zbekiston hududida konlarni qidirish va foydali qazilmalarni qazib olish uchun olinadigan lisenziyalarni kiritadi.

Tashrif chog'ida Rossiya mutaxassisleri: dolomit, bentonit gillari va kvars qumlari kabi noma'dan foydali qazilmalarning sanoat zaxiralari mavjud bo'lgan "Vaush" koniga, Bo'lim raisi A.Mirzayev kashfiyotchisi bo'lgan "Navbahor" hamda "Azkamar" MChJ tomonidan qazib olinadigan "Azkamar" bentonit gillari konlariga borishdilar. Mehmonlar keng qamrovli tadqiqotlar uchun namunalar tanladilar. Ularning ijobiy natijalari kelajakda potensial Rossiyalik iste'molchilarga mazkur no'madan foydali qazilmalarni yetkazib berishga yo'l

ochadi.

Navoiy bo'limi matbuot xizmati.